



Viloyat statistika boshqarmasining Kengash yig'ilishi
BAYONI № 2

2025-yil 14-may

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi:

-Sh.A.Abdiev – Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i

Qatnashdilar:

-Boshqarma boshlig'i o'rinnbosarlari, tarmoq va tuman (shahar) statistika bo'limlari boshliqlari (*ro'yxat bo'yicha*)

KUN TARTIBI

1. Statistika boshqarmasi tizimida 2025-yilning I choragida amalgamoshirilgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida.
2. Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025-yilning I choragida erishilgan ijobiy natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'g'risida.
3. Boshqa masalalar.

(*Sh.Abdiev, J.Ulashev, M.Salimov, tarmoq va tuman, shahar statistika bo'limlari boshliqlari, Sh.Abdiev*)

Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i Sh. Abdiyev ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilish boshida boshqarma boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldag'i "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni va joriy yilning 24-fevral kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son Qaroriga alohida to'xtalib o'tildi. Ta'kilandiki, yangi farmon bilan Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi va Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo'naliislari belgilandi. Jumladan:

- makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o'tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish;

- integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobtlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish;

- “mahalladan — respublikagacha” tamoyili bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma’lumotlarning ishonchligini ta’minlash;

- Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

2025-yil yakunigacha “Hududlar statistikasi” axborot tizimi ishga tushiriladi.

2025-yil yakuni bo‘yicha hisobot davridan boshlab xodimlar soni yillik o‘rtacha 5 kishidan kam bo‘lgan va yillik tushumi BHMning 2 000 barobarigacha bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yillik statistika hisobotini topshirish majburiyatini bekor qilib, har uch yilda bir marotaba statistik hisobot topshirilishi belgilandi.

Shuningdek, Statistika organlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda 2026-yil 1-yanvardan quyidagi interaktiv xizmat turlari joriy etiladi:

hisobotlarni topshirishda korxona va tashkilotlarga maslahat beruvchi “Maslahatchi” sun’iy intellektga asoslangan interaktiv xizmati;

foydalanuvchilarga statistik ma’lumotlarni tez izlab topishga ko‘maklashuvchi “Tahlilchi” sun’iy intellektga asoslangan konsultativ xizmati;

statistik kuzatuvlarni telefon yordamida o‘tkazish imkonini beruvchi “Call-markaz” faoliyati.

2025/2026 o‘quv yilidan Milliy statistika qo‘mitasida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Iqtisodiy statistika kafedrasi filiali tashkil etiladi.

2025-yil 1-iyuldan YaTTlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni ular shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari hamda iqtisodiy faoliyat turlarining umum davlat tasniflagichi asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda, 2025-yil 24-fevral kuni tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarori bilan Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Jumladan:

Qarorga ko‘ra, Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi tashkil etiladi.

Transformatsiya ofisi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda yangi mexanizmlarni joriy qilishga mas’ul etib belgilandi. Jumladan:

ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlarni, shu jumladan, aholi daromadlari va ularning manbalarini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

mikro darajada kuzatuvlarni amalga oshirish va statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish;

statistikka ma’lumotlaridan foydalanuvchilar bilan samarali qayta aloqani (mijozga yo‘naltirilganlikni) joriy etish.

Yig‘ilishda qaror bilan Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom hamda Respublika statistika kengashi to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlanganligi e’tirof etildi.

Shuningdek, “2025-yil uchun statistika ishlarini tayyorlash dasturi” doirasida boshqarma va uning hududiy bo‘limlari tomonidan 2025-yilning I choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida tayyorlangan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o’tildi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 20 324,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o’sdi.

Viloyat korxonalari tomonidan 10 063,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 6 746,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,9 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida investitsion faollikning oshganligi kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 10 437,2 mlrd. so‘mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 133,7 % ni tashkil etdi. Viloyatda jami 2 731,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 106,8 % ga teng bo‘ldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yilning 1-aprel holatiga (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 63 647 tani tashkil etib, ulardan 38 716 tasi yoki 60,8 % faoliyat ko‘rsatmoqda, yanvar-mart oylarida viloyatda 1 587 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 972,7 mlrd. so‘mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,0 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 8 379,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilning yanvar-mart oylarida 824,6 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport - 260,0 mln. AQSH dollarini va import – 564,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning 1-aprel holatiga viloyat bo‘yicha doimiy aholi soni 4 315,3 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga o’sdi.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini aks ettiruvchi, dolzarb masalalarda 710 ta tahliliy ma’lumotlar, 28 ta oylik va choraklik press-relizlar boshqarmaning rasmiy veb-saytida e’lon qilinganligini hamda ma’lumotlar infografika, diagramma va videoroliklar ko‘rinishida Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatilganligi va mahalliy nashrlarda chop etilganligini aytib o’tdi.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida, 2025-yilning yanvar-mart oylarida 110 ta buyruq, 2 280 ta chiqish xatlari, 36 ta yig‘ilish bayonnomasi va boshqa hujjatlar davlat tili talablariga mos ravishda tayyorlangan hamda ijroga qaratilgan. Devoriy yozuvlar, plakatlar undagi ma’lumotlar hamda boshqarmaning

muhr va shtamplari davlat tili talablari asosida o‘zgartirildi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha tadbirlar boshqarmaning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida profilaktika ishlari doirasida viloyatning barcha hududlarida 48 marta seminar va uchrashuvlar o‘tkazilib, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda 144 marta chiqishlar qilinib, 3 753 ta buklet va qo‘llanmalar tarqatildi. Natijada, mazkur tadbirlar orqali 1 018 ta holatda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarning oldi olindi.

“Tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi”ga asosan, 6 ta o‘quv kurslarida 15 nafar xodimlar malakasini oshirdi.

Kengash yig‘ilishida Statistika ishlarini tashkil etish va ma’lumotlarni tarqatish bo‘limi boshlig‘i X.Xazratkulov so‘zga chiqib, 2025-yil davomida tuman va shahar statistika bo‘limlarida Statistika faoliyatini tashkil etish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va ijro intizomi nazoratini yuritilishini o‘rganish yuzasidan Samarqand shahri, Samarqand, Bulung‘ur va Jomboy tumanlarida o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida;

Bulung‘ur tumanida, profilaktika ishlari o‘rganilganda, tushuntirish ishlari ro‘yxatga olish kitobi va tarqatiladigan qo‘llanma (bo‘klet)larini ro‘yxatga olish kitobi ochilgan bo‘lib, respondent imzolari mavjud emas, yangi tashkil etilgan subyektlarni qamrovi bo‘yicha ishlar tashkil etilmagan. Tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan uchrashuv bayonnomalari qilinmagan. Boshqarma tomonidan tayyorlangan Axborotnomalar chiqarilmagan.

Tanlanma kuzatuv papkalari ko‘rilganda xizmatlar sohasi, savdo sohasi, sanoat sohasi hamda qurilish sohasi kuzatuvga tegishli bo‘lgan yakuniy ma’lumotlar to‘liq chiqarilmagan.

Jomboy va Samarqand tumanlarida, profilaktika ishlari o‘rganilganda, tushuntirish ishlari ro‘yxatga olish kitobi va tarqatiladigan qo‘llanma (bo‘klet)larini ro‘yxatga olish kitobi ochilgan bo‘lib, respondent imzolari mavjud emas, yangi tashkil etilgan subyektlarni qamrovi bo‘yicha ishlar tashkil etilmagan. Tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan uchrashuv bayonnomalari qilinmagan. Boshqarma tomonidan tayyorlangan Axborotnomalar chiqarilmagan.

Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlari bilan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalar va ularning so‘zsiz bajarilishini ta’minalash borasida amalga oshirilgan ishlar aytib o‘tildi.

Kengash yig‘ilishi kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 8-maydagи 2-sonli Hay‘at yig‘ilishi bayoni tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig‘i Sh.Abdiyevning boshqarma tizimini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining

hujjatlari hamda topshiriqlarida belgilab berilgan vazifalarning statistika organlarida 2025-yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar muhokamasi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Boshqarma boshlig'i o'rnibosarlari, boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limi boshliqlari zimmalariga:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qaror va farmoyishlari bilan statistika sohasi oldiga belgilab berilgan, shuningdek, "2025 yil uchun I yarim yillik ish rejasi"da Milliy statistika qo'mitasining idoraviy hujjatlari bilan ijrosiga bevosita o'zлari mas'ul etib belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, puxta va samarali ijrosini ta'minlash;

-o'zлari mutasaddi bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha "2025-yil uchun Statistika ishlarini tayyorlash dasturi"da belgilangan statistika ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash, bunda yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rish;

-tahliliy statistika ishlari sifatini yanada kuchaytirgan holda, tayyorlanayotgan axborot-tahliliy ma'lumotlar mazmunini kengaytirilishi hamda ularni doimiy ravishda boshqarmaning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirish;

-barcha yo'nalishlar bo'yicha joylarda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlarni to'liq va sifatli tashkil etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirish hamda kuzatuv natijalari bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligi, haqqoniyligi va sifatliligi yuzasidan tahlillarni har tomonlama puxta tashkil etish;

-bajarilishi lozim bo'lgan barcha vazifalar bo'yicha tuman (shahar) statistika bo'limlari faoliyati monitoringi va nazorati borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish hamda vazifalarni joylarda samarali ijro etilishi yuzasidan ularga doimiy amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

4. Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarni tarqatish bo'limi (X.Xazratkulov), Boshqarma bo'limlari hamda tuman (shahar) statistika bo'limi boshliqlari bilan birgalikda:

-2025-yil uchun Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarini belgilangan muddatlarda, to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borsin;

-tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan sohaga oid yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni keng ko'lamda va samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirib borsin;

-boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limi boshliqlari bilan birgalikda, aniqlangan huquqbazarliklar, xususan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan statistik hisobotlarni taqdim etish borasida yo'l qo'yilgan huquqbazarliklarni bo'yicha ma'muriy ishlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritilishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va o'z muddatida ijro etilishini ta'minasin, bu borada nazoratni yanada kuchaytirsin.

5. Murojaatlari bilan ishslash va ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi (F.Sattarov):

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldaggi PF-27-sonli farmoni hamda 2025-yil 24-fevraldaggi PQ-75-sonli qarorlari va ular bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muntazam monitoring olib borsin va bajarilgan ishlar natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot kiritib borsin.

6. Statistik hisobotlarni taqdim etish intizomi va qamrovni ta’minlash maqsadida:

-hisobotlarni taqdim etish tartibini buzilishini oldini olish maqsadida profilaktika ishlarini amalga oshirish, ko‘rsatiladigan konsalting xizmatlari bo‘yicha subyektlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini jadallashtirish, hisobotlarni taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko‘rish bo‘yicha sezilarli o‘zgarish qilinmasa, intizomiy chora qo‘llanilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

-boshqarma boshlig‘i o‘rnbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), Statistika ishlarini tashkil etish va ma’lumotlarni tarqatish bo‘limi (X.Xazratkulov), Boshqarma bosh yuriskonsulti (O.Berdimuradov) bilan birgalikda ma’muriy ishlarni o‘z muddatida rasmiylashtirilishini hamda **“E-ma’muriy ish”** yagona axborot tizimiga kiritilishini nazoratga olinsin;

-konsalting xizmatini ko‘rsatish ishlarini amalga oshirgan bo‘lim xodimlarini o‘z vaqtida, tenglik asosida rag‘batlantirish hamda barcha bo‘lim xodimlarini to‘liq xabardor qilib imzo qo‘ydirish orqali amalga oshirilishi nazoratga olsin.

7. Ro‘yxatga olish jarayonlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘limi (F.Shukurov) tuman (shahar) statistika bo‘limlari bilan birgalikda:

-hududiy kadastr organlari bilan hamkorlikda mahalla xaritalarini yangilash ishlarini yakunlash yuzasidan olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borsin;

-tuman (shahar) statistika bo‘limlarida to‘rt turdag'i yig‘ma jiddlarning (aholini ro‘yxatga olishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar; amalga oshirilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari; aholi punktlarining xaritalarini yangilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar; aholi soni ko‘rsatilgan holda uy va xonardonlar ro‘yxatini yangilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlari) muntazam ravishda yangilanib borilishini ta’minlasin;

-aholini ro‘yxatga olishning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-sayt hamda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan kengroq foydalangan holda, yanada jadallashtirsin;

-aholini ro‘yxatga olishning rasmiy veb-saytini (aholi.stat.uz) boyitib borish uchun zarur axborot va ma’lumotlarni doimiy ravishda Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etib borilishini ta’minlasin.

8. Mas’ullarga kelgusida aholini ro‘yxatga olishning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlari faoliyatlarida sustkashlikka yo‘l qo‘ygan taqdirda, amaldagi qonunchilikka muvofiq, qat’iy intizomiy choralar qo‘llanilishi ko‘rsatib o’tilsin.

9. “Mahalla yettiligi” bilan birgalikda 2025-yilning 5-iyuligacha tuman va shaharlarni ro‘yxatga olishni va hisob uchastkalariga bo‘lgan holda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqsin.

10. Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassisi (N.Ochilova):

- Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutiga malaka oshirishga yuborilayotgan xodimlarini o‘z vaqtida yetib kelishi, dars jarayonlarida to‘liq va faol ishtirok etishi ustidan alohida nazorat o‘rnatsin va o‘qish yakuni bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalari darajasini o‘rganib borsin;

- malaka oshirishga yuborilayotgan xodimlar yakuniy test jarayonidan yetarlicha bal olmagan taqdirda lavozimlarini bir pog‘onaga tushirilishi yuzasidan choralar ko‘rilishi bo‘yicha ogohlantirilsin.

- ayrim sabablarga ko‘ra test sinovlarida ishtirok eta olmagan hamda yetarli ball to‘play olmagan xodimlarni 1 oy muddatda Milliy statistika qo‘mitasining reja-jadvaliga muvofiq test sinovlarini topshirish choralarini ko‘rsin.

11. Murojaatlari bilan ishslash va ijro intizomi nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi (F.Sattarov):

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldag‘i “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘sishma choratadbirlar to‘g‘risida” PF-6166сон Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydag‘i “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minalashga qaratilgan qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son qarori asosida ish tashkil etilishini ta’minalasin;

-ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari va hujjatlari, hukumat qarorlari hamda ularning ijrosi yuzasidan Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar va chora-tadbirlarni o‘z vaqtida, aniq va to‘liq hajmda bajarilishi uchun rahbar va xodimlarning shaxsiy javobgarligini oshirib, bu borada shaxsiy nazoratni yanada kuchaytirsin;

-tuman (shahar) statistika bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash masalalari bo‘yicha kompleks o‘rganishlarni reja asosida, yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etib, o‘z vazifalariga mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lgan mas’ul rahbar va xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy va boshqa ta’sir choralarini ko‘rish bo‘yicha taklif kiritib borsin;

-kelib tushgan hujjatlar bilan ishslash, ijro intizomi monitoringi bo‘yicha tartibda belgilangan 1 va 2-jadvallarni to‘liq shakllantirish hamda puxta tahlil etgan holda, Milliy statistika qo‘mitasiga belgilangan muddatda taqdim etilishida shaxsiy javobgarlikni yanada oshirsin.

12. Boshqarma bo‘limlari va tuman (shahar) statistika bo‘limi boshliqlari:

-jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda qonunda belgilangan muddatlarga qat’iy amal qilinishiga, nazorat va tahlil ishlarini kuchaytirishga hamda xodimlarning mas’uliyatini yanada oshirishga e’tiborni qaratsin;

-nazoratga olingan hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqilishini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda shaxsiy nazoratni yanada kuchaytirsin.

13. Boshqarma boshlig'i o'rnbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov):

Milliy statistika qo'mitasi topshirig'iga asosan **15 kun muddatda "Hududiy statistika boshqarmalarini rivojlantirish dasturi"**ni ishlab chiqib Milliy statistika qo'mitasi raisi kotibiyati mudiri F.Berdibayevga taqdim etsin.

14. Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi bo'limi (X.Karabekov) shahar va tumanlar statistika bo'limi boshliqlari bilan birgalikda qishloq xo'jaligi statistik kuzatuvlarini samarali tashkil etish maqsadida har bir hududiy Fermerlar kengashlari uchun seminarlar tashkil etsin.

15. Boshqarma boshlig'i o'rnbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), tegishli tarmoq bo'limlari, hamda tuman va shahar statistika bo'limi boshliqlari bilan birgalikda Statistika dasturida belgilangan va bajarilishi lozim bo'lgan statistik kuzatuvlarni belgilangan tartibda o'tkazilishi, ma'lumotlarini shaffofligi, tanlab olingan kuzatuv ob'ektlariga chiqilganligini hamda ishonchli shakllantirilishini nazoratga olsin.

Kelgusida statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayonini to'g'ri tashkil qilish, statistik kuzatuvlar ma'lumotlarini shakllantirish jarayonlarida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yish hamda faoliyatlarida sustkashlikka yo'l qo'ygan taqdirda, mas'ullar amaldagi qonunchilikka muvofiq, qat'iy intizomiy choralar qo'llanishi bo'yicha ogohlantirilsin.

16. Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov):

-tizimdagи kompyuter va boshqa qurilmalardan xizmat doirasidan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlanganda, tegishli xodimlarga o'rnatilgan tartibda chora ko'riliши yuzasidan ogohlantirilsin.

Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlarida foydalanilayotgan VPN hamda IP telefon tarmog'ini doimiy ishchi holatida bo'lishi;

-xodimlar tomonidan Internet tarmog'idan samarali foydalanish va axborot xavfsizligi talablarini bajarish masalalarini shaxsan nazoratga olish;

-internet tarmog'idan to'g'ri va xavfsiz foydalanish, shaxsiy yozishmalar uchun esa milliy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil qilish;

-ish joyidagi Internet tarmog'idan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni qat'iy man qilish va har bir xodimning Internet tarmog'idagi faoliyatini doimiy monitoringini olib borish;

-xizmatga doir ma'lumotlarni xorijiy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda almashishini man qilish, milliy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil qilish hamda ushbu maqsadda Internet tarmog'iga cheklolvar o'rnatilishini tashkil qilish;

-antiviruslar bazalarini o'z vaqtida va doimiy ravishda yangilab borilishini ta'minlasin.

17. Axborot xafsizligiga oid yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha tegishli bo'lim boshliqlarining faoliyatini boshqarmaning kengash yig'ilishida tanqidiy

muhokama qilish va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ullarga tegishli intizomiy choralar ko‘rilishi belgilab qo‘yilsin.

18. Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limi boshliqlari hamda Manaviyat-ma’rifat ishlari samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha javobgar (F.Eshonkulov):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldaggi PF-27-son Farmonidagi 2025-yilga mo‘ljallangan axborot siyosatini yuritish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minalash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minalash choralarini ko‘rsin.

19. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), bosh yuriskonsulti (O.Berdimuradov)ga:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlaringin samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son qarori, 2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni va “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5177-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta’minalash;

-so‘rovlari, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ‘iboti bo‘yicha chora-tadbirlar natijalari va ta’sirini hamda korrupsiyaga moyil bo‘lgan soha va yo‘nalishlarni kamida bir yilda ikki martadan baholash;

-alohida maqsadli guruhlarning (*davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va boshqalar*) korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va tizimi haqida huquqiy bilimi va xabardorligini oshirish yuzasidan ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar (*davra suhbati, seminarlar*)ni amalga oshirish;

-amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotlarni Milliy statistika qo‘mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasiga o‘z vaqtida to‘liq taqdim etib borish;

-mansab vakolatini suiste‘mol qilish, korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilishining oldini olish maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to‘liq va sifatli ta’minalash bo‘yicha zarur choralarni amalga oshirib borsin hamda barcha darajadagi tizim xodimlari o‘rtasida har chorakda kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tushuntirish ishlarini o‘tkazish;

-boshqarma tizimi xodimlari o‘z kasbiga nisbatan yuklatilgan vazifa va majburiyatlarini bajarish chog‘ida halollik, xolislik, beg‘arazlik, ochiqlik va adolatlilik tamoyillarida faoliyat yuritishini ta’minalash vazifasi yuklatilsin;

-amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi hamda korrupsiya holatini har qanday ko‘rinishiga chek qo‘yish va mas’ul xodimlar korrupsiya vaziyatiga duch kelgan taqdirida Milliy statistika qo‘mitasining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlariga murojaat qilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

- Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni kuchaytirgan holda korruption xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyatga keng joriy etilsin;

-Tizimda korrupsiya holatlari yuzasidan o‘z vaqtida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rilsin.

(U.Sadirov) bilan birgalikda:

-korrupsiya holatlari mavjudligi bo‘yicha yoki xodimlarning muammolari va takliflari mavjud bo‘lsa, anonim tarzda xabar berish maqsadida boshqarmaning korrupsiya bo‘yicha murojaatlarni qabul qilish uchun rahbar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari yuklatilgan mas’ul shaxs nazoratida telegram bot shakllantirish va botni aloqa kanallari qatoriga qo‘shish;

-mazkur botga kelib tushgan murojaatlarni tegishli tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqish va chora-tadbirlarni amalga oshirish choralarini kurish.

20. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), bosh yuriskonsulti (O.Berdimuradov), Axborot xizmati (F.Eshonkulov)ga:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2733-sonli va 2021-yil 19-maydagи “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarorlari ijrosini ta’minalashni qat’iy nazoratga olsin;

-huquqiy targ‘ibot, veb-saytdagi normativ-huquqiy hujjatlarning yangilanib borishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan veb-saytgta haftalik targ‘ibotlarni joylashtirib borish.

-boshqarmada xodimlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va xodimlar xamda mehnat jamoasida kitob o‘qish madaniyati, shu orqali bilim va tajribalarini oshirish, dunyo qarashini kengaytirish maqsadida eng ko‘p o‘qilgan va sotilgan (bestseller) kitoblarni sotib olish va kutubxonani ushbu kitoblar bilan muntazam boyitib borish;

-yil yakuniga qadar xodimlarning qaysi mazmundagi kitoblarga ehtiyoji borligidan kelib chiqib kitoblar fondini 200 ta yangi kitoblar bilan to‘ldirish, xodimlar o‘rtasida “Eng yaxshi kitobxon” tanlovini tashkil etish, tanlovda g‘olib xodimni moddiy mukofotlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

-xodimlarning xorijiy tillarni o‘rganishini va til bo‘yicha darajalarni olishda ularning bilimlarini oshirish, boshqarmada ingiliz tili o‘rganish kurslarini tashkil etish, uchun o‘quv markazlari bilan shartnoma imzolash, tizimli ravishda rahbar kadrlarni xorijiy tilni bilish bo‘yicha sertifikatlar olishini ta’minalash.

21. Viloyatning shahar va tumanlarida 2025-yilning I choragida o‘ykazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra:

- Bulung'ur tumani statistika bo'limi mutaxassisi Sh.Botirovga "xayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilsin.

- Jomboy tumani (Sh.Buriyev) va Samarqand tumani (F.Djabborov) statistika bo'limi boshliqlari ogohlantirilganligi ko'rsatib o'tilsin.

Shu bilan birga, Viloyat statistika boshqarmasi tomonidan 2025-yil davomida tuman va shahar statistika bo'limlarida Statistika faoliyatini tashkil etish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va ijro intizomi nazoratini yuritilishini o'rganish yuzasidan reja-jadvaliga asosan II chorak davomida Toyloq, Urgut, Oqdaryo va Ishtixon tumanlarida kompleks o'rganishlar o'tkazish belgilab qo'yilsin.

22. Milliy statistika qo'mitasi tomonidan hududiy statistika organlarining faoliyati natijadorligi bo'yicha o'tkazilgan baholashda boshqarmaning barcha bo'limlari tomonidan baholashda qo'llaniladigan tegishli indikatorlar bo'yicha belgilangan parametrlarda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik borasida zarur choralar ko'rilsin.

Kelgusida statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonlarida xato va kamchiliklarga hamda faoliyatlarida sustkashlikka yo'l qo'ygan taqdirda mas'ul xodimlarga belgilangan tartibda qat'iy intizomiy choralar qo'llanilishi bo'yicha ogohlantirilsin.

23. Kengash yig'ilishi qarorlari ijrosini nazorat qilishni boshqarma boshlig'i o'rribosarlari J.Ulashev va M.Salimov zimmasiga yuklatilsin.

Bayon yozuvchi

 X. Xazratkulov

J. B. *S. M.*

l'adattamento di un progetto di politica europea, il quale ha per obiettivo di promuovere la crescita economica e sociale dell'Unione europea, attraverso l'adozione di misure legislative, finanziarie e strutturali che favoriscono lo sviluppo dell'economia europea, la creazione di posti di lavoro, la crescita del mercato interno e la competitività dell'industria europea. Il progetto prevede inoltre la riduzione delle diseguaglianze sociali e la promozione della partecipazione dei cittadini europei alla vita politica e culturale del continente.

Il progetto è stato approvato dal Consiglio europeo nel giugno 2007 e si è concentrato su tre principali obiettivi:

- la creazione di un mercato interno comune;
- la promozione della crescita economica e sociale;
- la riduzione delle diseguaglianze sociali.

Il progetto ha avuto un impatto positivo sulla crescita economica europea, con una crescita media annuale del 2% dal 2007 al 2012. Inoltre, il progetto ha contribuito alla creazione di milioni di posti di lavoro, soprattutto nelle settori della manifattura, del commercio e del servizio. Tuttavia, il progetto ha anche evidenziato alcune critiche, come la concentrazione dei poteri nelle grandi aziende multinazionali e la scarsa partecipazione dei cittadini europei alla vita politica e culturale del continente.

Il progetto è stato criticato per essere troppo centralizzato e per non tenere sufficien-

ziale attenzione alle questioni locali e regionali.

Introduzione